

## O'ZBEK VA INGLIZ XALQ OG'ZAKI IJODI MAQOLLARINING TAHLILI

To'rabekov Umidjon

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

II–bosqich magistratura talabasi

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'zbek va ingliz xalq og'zaki ijodi hisoblangan maqol va matallarning o'xshashlik jihatlari ko'rsatalib o'tiladi va tahlil qilinadi.*

**Annotation :** *In this article, a comparative analysis of English and Uzbek proverbs was studied. However, their alternative forms in the Uzbek language were fully explained with the help of examples.*

**Kalit so'zlar:** *ingliz va o'zbek maqol va matallari kognektiv tahlil, tarjima, ekvivalentlik, adekvatik muammolar.*

**Keywords:** *English and Uzbek proverbs and sayings, cognitive analysis, translation, equivalence, adequacy problems.*

Maqol arab tilidagi «qavlun» so'zidan olingan bo'lib, so'z tushunchasi degan ma'noni beradi. Asrlar mobaynida, xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga ega bo'lgan, insonlarga fikrni to'laqonli tushuntirishda alohida o'ringa ega bo'lgan narsa bu maqol va matallardir. Bundan ming yil avval ajdodlarimiz maqollarni «sav» deb ataganlar.

Keyinchalik Alisher Navoiy ijodida maqol atamasi «masal» tarzida beriladi: «masaldurkim–uyqu o'limdir». «Masal» atamasining XX asr boshlarigacha qo'llanib kelingani ma'lum. O'tgan asrning ikkinchi choragidan boshlab maqol so'zi tez-tez uchray boshlaydi. XX asr yarmidan esa faqat maqol tarzida qo'llandi. O'zbek xalq maqollaridunoyodagiboshqa xalqlarda bo'lgani kabi mavzu jihatidan xilma-xil varang-barangdir. Ular mazmuniga vatan, xalq, mehnat, oila, oliy insoniy fazilatlar kabi inson hayotida muhim hisoblangan masalalar haqidagi hukmlar singdirilgan. Shuning uchun ham bu maqollarni xalqning og'zaki qomusi bilan tenglashtirish odat tusiga kirgan . [1]

Ayni chog'da ular yaratilishi jihatdan juda qadimiy zamonlarda yashagan ajdodlarimiz ijodining mahsulidir. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Munis, Abulg'oz Bahodirxon, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza, Sadridin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom va boshqa o'nlab ijodkorlarning asalari sinchkilab o'rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba'zan aynan, ba'zan o'zgargan holda mavjudligiga ishonch hosil qilishimiz mumkin. Muhammad Sha'rif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari tarkibida 300 dan ortiq maqol keltirib o'tishi, XI asrning ulkan tilshunos olimi, folklorshunos va etnograf Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'ati turk" asarida turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallarning borligi bunga yaqqolmisol bo'ladi. [2]

O'zbek xalq og'zaki ijodi maqol va matallarga juda boy xalq deyilsa, mutloq yangilishilmagan bo'ladi. Shuningdek, ingliz tili bilan o'zbek tilining maqol va iboralarining

o'xshashlik jihatlari bor. Faqat, ingliz tilining grammatik, leksik xususiyatlarini o'rganish bilan birga ingliz xalqining ma'daniy hayotini ham chuqur o'rgangan va o'zlashtirgan tadqiqotchigina ingliz so'z birliklari, ayniqsa ingliz xalq maqollarining o'zbek tilidagi munosib ekvivalentini topishda xatosiz ishlay olishi mumkin. [3]

Lakoff va Tyorner maqollarni kognitiv tahlil qilish jarayoni Buyuk Zanjir Metaforasi (The Great Chain Metaphor) nazariyasi orqali amalga oshiriladi degan fikrni ilgari surdilar. Mazkur nazariya to'rtta bilim vositasini o'z ichiga oladi va bu yondashuvlar maqollarni butun bir kontekstda talqin qilishga yordam beradi.

#### **BU TO'RTTA YONDASHUVLAR QUYIDAGILAR:**

Umumiy ma'lumot metaforasi (Generic is specific), Yaratilishning Buyuk Zanjiri (The Great Chain of Being), Narsalarning tabiati (The Nature of Things), Og'zaki Iqtisod prinsipi (The Principle of Verbal Economy) kabi nomlanib barchasi maqollardagi konseptlarni tushunishga, tahlil qilishga yordam beradi.[4]

Bu ikkita olim: "Bular bilan birgalikda, ikki tildagi maqollar bilan tanishganimizdan so'ng, ular odamlarning hayot faoliyati va bajaradigan ishlariga taalluqli ekanligini anglab yetamiz"– deb ta'kidlashgan. [ Lakoff & Tyorner; 1989; 175]. Lekin bu nazariyaga qarshi fikrlar ham bo'lgan xususan, Honek va Temple 3 BZM (Buyuk zanjir metaforasi) ni mukammal emasligini ta'kidlab o'tishgan. O'zbek va ingliz maqollarining adekvatik munosabati bilan shug'ullanadigan ko'plab tilshunoslarni uchratishimiz mumkin. Ulardan Karamatov va Karamatovalarning yaratgan maqollar lug'ati bo'lmish "Proverbs. Пословицы. Мақоллар" kitobida inglizcha maqollarning ruscha va o'zbekcha variantlari keltirilgan.[5]

Millat ma'daniyatini, xalqning o'zligini anglatuvchi, milliy qadryatlarini aks ettiruvchi omillardan biri bu xalq og'zaki ijodi bo'lib, u faqat shu xalqqa xosdir. Fors maqollariga asoslanib, Zolfog'ariy va Ameri quyidagi ta'rifni taklif qiladilar: "Maqol — bu yaxshi ma'lum bo'lgan, va ba'zan ritmik, maslahatlar, hikmatli mavzular va etnik tajribalarni o'z ichiga olgan, o'xshatish, metafora yoki kinoyani o'z ichiga olgan qisqa jumladir.

Ravon so'zlashuvi, ifoda ravshanligi, soddaligi, keng va umumiyliigi bilan odamlar orasida mashhur bo'lib, o'zgargan va o'zgarmagan hollarda ham qo'llaniladi". Ingliz xalq og'zaki ijodi bo'lgan maqollarini o'zbek tiliga tarjima qilganimizda, ikki xalqning o'zaro o'xshashliklarini borligini ko'rishimiz mumkin.

"Posion the wells" – "Hiyla ham o'z o'rinida botirlikdir"

"I would not touch him with a pair of tongs" – "Ko'rmayin ham, kuymayin ham"

A danger foreseen it half avoided" – "Oldingadagi ovni ko'rmasang ham, uzoqdagi yovni ko'ra bilgin"

"When it rains it rains on all alike" – "O'rmonga o't kelsa, ho'l-u quruq barovar yonadi"

"Lightly come, lightly go"– "Yengil topilgan , oson ketar".

"The bad news has wing" – "Yomon xabarning qanoti bor".

"Better late than never"– "Hechdan ko'ra kech".

“Mind your own business” – “O'zingni bil ,o'zgani qoy”

“Wait and see” – “Sabrning tagi sariq oltin”. [6]

Yuqorida ko'rsatilib o'tilgan maqollarning har biri haqida fikr yuritadigan bo'lsak, ingliz va o'zbek xalqlarining qanchalik darajada o'xshash jihatlarini borligini ko'rishimiz mumkin. Lekin ayrim maqol va matallar borki ularni tarjima qilish ozroq g'alati va tushunarsizroq bo'ladi.

Masalan, “Oaks may fall when reeds stand the storm” – inglizcha maqoli o'zbek tiliga “Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko'r” deb tarjima qilingan. So'zma so'z tarjimadan foydalanishda esa quyidagicha tarjima qilinadi: “Qamishlar bo'ronga dosh berganda, emanlar qo'lashini ko'r”, shuningdek, maxsus tushuntirishga hojat bo'lmagan “Yo'g'on cho'zilguncha, ingichka uziladi” degan so'zlarga mos keladi. Shuni ta'kidlash lozimki, o'zbek va ingliz tillarida maqol va matallarda bitta o'xshash (yoki bir xil) narsa yoki g'oyani bildirish uchun turli xil tasvirlangan foydalaniladi; bu tasvirlar ikki millatning turli xil ijtimoiy standartlari va turmush tarzlarini aks ettiradi.

#### MASALAN

“The best fish swim near the bottom” degan maqol tom ma'noda «eng

yaxshi baliq suvning pastida suzadi» deb tarjima qilingan. Ammo o'zbek tilida bunday maqol yo'q. Bu qisman o'zbekcha «Yaxshi ot keyin chopdi» maqoliga mos keladi va insonlar ongida shunday gavdalanadi. Bir narsani yodda tutish joizki, har bir so'zning semantik va grammatik ma'nosini tushunilsa ham har bir tilda so'zma–so'z qabul qilinmaydigan so'z va iboralar mavjud. Bu holatda maqol yoki so'zning g'oyasi tushunarsiz va g'alati tuyuladi.

Ushbu maqollar yoki matallarni so'zma–so'z tarjima qilishga urinishlar kutilmagan va ko'pincha g'alati natijaga olib kelishi mumkin. Masalan, “It is better to have loved and lost, than to never have loved at all” degan inglizcha ibora (so'zma–so'z «hech qachon sevmagandan ko'ra, sevgan va yo'qotgan afzal») o'zbek tilidagi ekvivalenti “Ming marta eshitgandan ko'ra, bir marta ko'rgan afzal” maqoliga to'g'ri keladi. Inglizcha iboralar, frazeologik birliklar, maqollar va matallar uchun ekvivalentni tanlashda biz harikkala iborada ham grammatik yoki semantik mosliklarni topishga harakat qilishimiz kerak. [7]

Yuqorida ko'rsatilgan fikrlarning barchasi mutlaqo to'g'ri. Xalq og'zaki ijodining eng muhim janrlaridan biri bo'lgan maqol insonlarning yillar davomida to'plangan donishmandlik na'munalaridir.

Maqollarni qaysi til yoki millatdan to'plashimizdan qat'iy nazar o'xshashlik jihatlarini uchratamiz chunki maqol va matallarda asosan insonlarning hayoti davomida bo'lib o'tgan voqealar asosida yozilgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. <https://www.researchgate.net>
2. <https://images.app.goo.gl/5ptn5stxg8a11g2e8>
3. O'zbek xalq maqollari (to'liq variantda)  
<https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=2620.0>
4. 6-sinf adabiyoti darslik.
5. "O'zbek xalq maqollari" X. Suvonqolova "Adabiyot uchqunlari", Toshkent 2014.
6. <https://maqollar.uz/>
7. XALQ OG'ZAKI POETIK IJODI Akademik litseylar uchun darslik O. MADEYEV, T. SOBITOVA «SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT — 2010.